

O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2026-YIL MAXSUS SON

ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 SPECIAL ISSUE

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.SI.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.



MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“O‘zbekiston qonunchiligi tahlili” ilmiy-tahliliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi si Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Mustafayev, Y. Yarmolik,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova,
X. Yuldasheva, F. Usmonova,
K. Abduvaliyeva, E. Sharipov

Musahhih:
M. Tursunov

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: lawreview.uz
E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Nashriyot litsenziyasi
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 26-avgustda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 13,2.
Adadi: 100. Buyurtma: № 82.

Bosmaxona litsenziyasi
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

S. Gulyamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquq va texnologiyalar sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o‘rinbosari

Sh. Xo‘jayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori – mas‘ul muharrir

O. Oqyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Ener – Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh kotibi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

M. Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori

S. Tatar – Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori

J. Peeroo – Sarbonna universiteti professori, “Stone 36” yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori

B. Musayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Saydullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar nomzodi

D. Habibullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

S. Bozorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

I. Bekov – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

V. Ergashev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Joldasova – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

O. Xazratqulov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro xususiy huquq sho‘basi mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

D. Suyunova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

D. Maxkamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti dekani, professor, yuridik fanlar doktori

D. Babadjanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar doktori

A. Matmurotov – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho‘basi mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

E. Rahmatov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

M. Turdaliyev – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik ta‘lim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Научно-аналитический журнал «Обзор законодательства Узбекистана» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев, Е. Ярмолик,
М. Шаринова, Ш. Бекназарова,
Х. Юлдашева, Ф. Усмонова,
К. Абдувалиева, Э. Шарипов

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.08.2026.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 13,2. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 82.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Гулямов – профессор сектора права и технологий Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

И. Рустамбеков – проректор Ташкентского государственного юридического университета по учебной работе, доктор юридических наук, профессор – заместитель главного редактора

Ш. Хужаев – заведующий сектором права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам – ответственный редактор

О. Окюлов – профессор сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Энер – доцент Университета Анкары Хаджи Байрам (Турция), заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам, доктор права

М. Бунгенберг – директор Европейского института Саарского университета, доктор права

С. Татар – профессор Университета Анкары Йылдырым Беязит (Турция), доктор права

Ж. Пироо – профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36, доктор права

Б. Мусаев – декан факультета бизнес-права и судебной защиты Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Ш. Сайдуллаев – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Хабибуллаев – заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

С. Бозоров – профессор сектора международного частного права Ташкентского государственного юридического университета (Registrar's Office), доктор юридических наук

И. Беков – заведующий сектором конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

В. Эргашев – заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Ш. Джолдасова – ведущий научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

О. Хазраткулов – заведующий сектором международного частного права Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук, профессор

Д. Суюнова – профессор сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Д. Махкамов – декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Д. Бабаджанова – и.о. профессора сектора гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Матмуротов – заведующий сектором судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

Э. Рахматов – декан факультета частного права и сравнительного правоведения Ташкентского государственного юридического университета по делам молодёжи и духовно-просветительской работе, доктор философии по юридическим наукам, доцент

М. Турдиалиев – заместитель начальника управления юридического образования и судебной экспертизы Министерства юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, доктор философии по юридическим наукам

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"Uzbekistan Law Review" scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Mustafaev, E. Yarmolik,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova,
Kh. Yuldasheva, F. Usmonova,
K. Abduvalieva, E. Sharipov

Proofreader:
M. Tursunov

Technical editor:
U. Sapayev

Designer:
D. Rajapov

Publishing department address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: lawreview.uz
E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Publishing license
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the
Printing house on 26.08.2026.
Paper size: A4.
Cond.p.f: 13,2.
Units: 100. Order: № 82.

Printing house license
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD
EDITOR-IN-CHIEF

S. Gulyamov – Professor of the Department of Law and Technologies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

I. Rustambekov – Deputy Rector for Academic Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor - Deputy Editor-in-Chief

Sh. Khujaev – Head of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor

O. Okyulov – Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Ener – Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law

M. Bungenberg – Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law

S. Tatar – Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of Law

J. Peeroo – Professor of the University of Sorbonne, lawyer of the law firm Stone 36, Doctor of Law

B. Musaev – Dean of the Faculty of Business Law and Judicial Protection of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Sh. Saydullaev – Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Habibullaev – Head of the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

S. Bozorov – Professor of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Bekov – Head of the Department of Constitutional Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

V. Ergashev – Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

Sh. Joldasova – Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

O. Khazratkulov – Head of the Department of Private International Law of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences, Professor

D. Suyunova – Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

D. Mahkamov – Dean of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

D. Babadjanova – Acting Professor of the Department of Civil Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Matmurotov – Head of the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

E. Rahmatov – Dean of the Faculty of International Law and Comparative Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

M. Turdialiyev – Deputy Head of the Department of Legal Education and Forensic Examination of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**
Moliyaviy sanksiyalar bo'yicha nizolar yuzasidan ma'muriy sud ishlarini yuritish muammolari
- 18 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Bandlik sohasidagi ommaviy-huquqiy nizolarni ma'muriy sudlarda ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari
- 27 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va boshqarishning nazariy-huquqiy asoslari
- 34 **AVEZOVA ELEONORA PARAXATOVNA**
O'zbekiston Respublikasi ma'muriy organlari tomonidan ma'muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat)ni amalga oshirish ustidan sud nazorati
- 42 **NAZAROV O'TKIR ERKINOVICH**
Yevropa Ittifoqi davlatlarida ma'muriy tartib-taomillar institutining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 56 **RAHMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**
Korporativ huquq subyektlarini ixtiyoriy usulda qayta tashkil etishning nazariy va amaliy muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 62 **NARZULLAYEV OLIM XOLMAMATOVICH**
Iqlim o'zgarishi sharoitida "yashil" ish o'rinlari va yoshlar ta'limini uyg'unlashtirish: O'zbekiston tajribasi
- 76 **MAMAYUSUPOV OYATBEK A'ZAMJON O'G'LI, JUMASHEV BEXRUZ ALISHEROVICH**
Ekologiyani muhofaza qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati: O'zbekiston va Xitoy tajribasi

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 84 **ZOILBOYEV JAVLON KARIMJON O'G'LI, BERDIQULOVA DIYORA DONIYOR QIZI**
Ijtimoiy tarmoqlarda kiberbulling (kiberzo'ravonlik) va huquqiy javobgarlik

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 93 **IBODULLAYEV SAYIDKOMIL BEKPO'LAT O'G'LI**
Ko'p tomonlamalikdan bir tomonlamalikka: JST huquqiy tizimi inqirozi va uning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy savdoga ta'siri

HUQUQNI SOHALARARO TADQIQ ETISH

- 104 **RAMAZONOV NODIR NORMURODOVICH**
Sofoklning "Antigona" tragediyasida tabiiy va pozitiv huquq o'rtasidagi kurashning badiiy talqini
- 109 **BOZOROVA NASIBA PO'LOTJONOVNA**
Yuridik ta'limda Komil Sindarovning "Qimmatga tushgan xato" qissasini o'qitish

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 8 **ЛИ АДИК АЛЕКСАНДРОВИЧ**
Проблемы административного судопроизводства по спорам о финансовых санкциях
- 18 **ЖУРАЕВ ШЕРЗОД ЮЛДАШЕВИЧ**
Особенности рассмотрения публично-правовых споров в сфере занятости в административных судах
- 27 **ГОЗИЕВ КОЗИМБЕК ЖОВЛОНБЕКОВИЧ**
Теоретико-правовые основы регулирования и управления деятельностью высших образовательных организаций
- 34 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Судебный контроль за осуществлением административного усмотрения (дискреционного полномочия) административными органами Республики Узбекистан
- 42 **НАЗАРОВ УТКИР ЭРКИНОВИЧ**
Тенденции и перспективы развития института административных процедур в европейских государствах

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 56 **РАХМОНОВ ОТАБЕК КУЧКОР УГЛИ**
Теоретические и практические проблемы добровольной реорганизации субъектов корпоративного права

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 62 **НАРЗУЛЛАЕВ ОЛИМ ХОЛМАМАТОВИЧ**
Соответствие «зелёных» рабочих мест и образования молодёжи в условиях изменения климата: опыт Узбекистана
- 76 **МАМАЮСУПОВ ОЯТБЕК АЪЗАМЖОН УГЛИ, ЖУМАШЕВ БЕХРУЗ АЛИШЕРОВИЧ**
Деятельность негосударственных некоммерческих организаций в сфере охраны окружающей среды: опыт Узбекистана и Китая

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 84 **ЗОИЛБОВЕВ ЖАВЛОН КАРИМЖОН УГЛИ, БЕРДИКУЛОВА ДИЁРА ДОНИЁР КИЗИ**
Кибербуллинг (кибернасилие) в социальных сетях и юридическая ответственность

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

- 93 **ИБОДУЛЛАЕВ САЙИДКОМИЛ БЕКПУЛАТ УГЛИ**
От многосторонности к односторонности: кризис правовой системы ВТО и его последствия для региональной торговли в Центральной Азии

МЕЖОТРАСЛЕВОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРАВА

- 104 **РАМАЗОНОВ НОДИР НОРМУРОВОВИЧ**
Художественная интерпретация противостояния естественного и позитивного права в трагедии Софокла «Антигона»
- 109 **БОЗОРОВА НАСИБА ПУЛОТЖОНОВНА**
Преподавание повести Комила Синдарова «Жажда мести» в юридическом образовании

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**
Problems of administrative judicial proceedings regarding financial sanctions disputes
- 18 **JURAEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Peculiarities of considering public law disputes in the field of employment in administrative courts
- 27 **GOZIEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Theoretical and legal foundations of regulation and management of the activities of higher educational institutions
- 34 **AVEZOVA ELEONORA PARAKHATOVNA**
Judicial control over the implementation of administrative discretion (discretionary authority) by the administrative authorities of the Republic of Uzbekistan
- 42 **NAZAROV UTKIR ERKINOVICH**
Trends and prospects for the development of administrative procedures in the countries of the European Union

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 56 **RAKHMONOV OTABEK KUCHKOR UGLI**
Theoretical and practical problems of voluntary reorganization of subjects of corporate law

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 62 **NARZULLAEV OLIM KHOLMAMATOVICH**
Aligning green jobs and youth education in the context of climate change: evidence from Uzbekistan
- 76 **MAMAYUSUPOV OYATBEK AZAMJON UGLI, JUMASHEV BEKHURUZ ALISHEROVICH**
Activities of non-governmental non-profit organizations in environmental protection: the experience of Uzbekistan and China

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 84 **ZOILBOEV JAVLON KARIMJON UGLI, BERDIQULOVA DIYORA DONIYOR KIZI**
Cyberbullying (cyber violence) on social media and legal liability

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 93 **IBODULLAEV SAYIDKOMIL BEKPULAT UGLI**
From multilateralism to unilateralism: the crisis of the WTO legal system and its implications for regional trade in Central Asia

INTERDISCIPLINARY STUDY OF LAW

- 104 **RAMAZONOV NODIR NORMURODOVICH**
Artistic interpretation of the struggle between natural and positive law in Sophocles' tragedy "Antigone"
- 109 **BOZOROVA NASIBA PULOTJONOVNA**
Teaching Komil Sindarov's short story "Lust for Revenge" in legal education
-

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.07.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 07.08.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.08.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.uzlawrev.3.SI./LMUV4089>

UDC: 342.9:378(045)(575.1)

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

G'oziyev Kozimbek Jovlonbekovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi sho'basi o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-8093-7332>

e-mail: kozimg@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tashkilotlarining rivojlanish tarixi masalalari ko'rib chiqildi. Milliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari hamda statistik ma'lumotlar, ma'muriy islohotlarning mazmun-mohiyati, boshqaruvni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Milliy qonunchilikni o'rganish barobarida oliy ta'lim tashkilotlarining rivojlanishi, davlatning bu sohada o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishish yo'lida bajarilishi lozim bo'lgan masalalar yoritib berildi. Shuningdek, axborot va raqamlashtirish asrida oliy ta'lim sohasini tashkil etish va boshqaruvini takomillashtirish, davlat organlari bilan oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro munosabatini tartibga solish hamda muvofiqlashtirish holatlari tahlil etildi. Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlariga e'tibor qaratgan holda oliy ta'lim tashkilotlarining ichki va tashqi boshqaruvi sohasidagi ayrim jihatlar tahlil qilinib, ta'lim xablarini yaratishning ijobiy holatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ma'muriy islohotlar, boshqaruv, davlat nazorati, tashkilot

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Гозиев Козимбек Жовлонбекович,

доктор философии по юридическим наукам,

преподаватель сектора административного и финансового права

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы исторического развития организаций высшего образования. Проанализированы научные исследования отечественных и зарубежных учёных, статистические данные, содержание административных реформ, а также особенности осуществления управления в сфере высшего образования. На основе изучения национального законодательства раскрыты основные направления развития высших образовательных организаций и задачи, решение которых необходимо для достижения поставленных государством целей в данной сфере. Особое внимание уделено совершенствованию организации и управления системой высшего образования в условиях цифровизации, а также правовому регулированию и координации взаимодействия государственных органов и высших образовательных организаций. С учётом развития государственно-частного партнёрства

проанализированы отдельные аспекты внутреннего и внешнего управления высшими образовательными организациями и раскрыты преимущества создания образовательных хабов.

Ключевые слова: высшее образование, административные реформы, управление, государственный контроль, организация

THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF REGULATION AND MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Goziev Kozimbek Jovlonbekovich,

Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. This article examines the history of the development of higher education institutions. Scientific research and statistical data from domestic and foreign scholars, the essence and significance of administrative reforms, and the specifics of management implementation were analyzed. Alongside the study of national legislation, issues regarding the development of higher education institutions and the achievement of state goals and objectives in this field were highlighted. Also, in the age of information and digitalization, the organization and improvement of management in the field of higher education, the regulation and coordination of the relationship between state bodies and higher educational organizations were analyzed. With an emphasis on public-private partnership relations, certain aspects of the internal and external management of higher educational organizations are analyzed, and positive cases of creating educational hubs are revealed.

Keywords: higher education, administrative reforms, management, state control, organization

Kirish

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va boshqarish, ma'muriy-huquqiy jihatlar keng ko'lamli islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kundagi milliy g'oyamizning eng muhim omili va ajralmas qismidir. Shu maqsadda mamlakatimiz hududida oliy ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishi, tarixi, rivojlanish bosqichlari, ta'lim tashkilotlari tushunchalarining huquqiy tabiati va nazariy asoslarini ochib berish, ularning bir-biridan farqli jihatlarini aniqlash, bu sohaga oid qonunchilik va boshqaruvning o'tmish hamda hozirdagi holatini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida barcha huquqiy fanlar uchun muhim bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik, determinizm prinsiplari, xronologik uslub, statistik, qiyosiy-tahlil, formal-yuridik, induksiya, deduksiya va boshqa ilmiy metodlardan foydalanildi.

Asosiy qism

Oliy ta'lim sohasida mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishning rivojlanib borishi natijasida zamonaviy tahliliy tadqiqotlar olib borish axborot asrining davr talabidir.

Albatta, bugungi kun darajasida bo'lmasa-da, oliy ta'lim tashkilotlarining dastlabki ko'rinishlari asosan hududimizda islom dini kirib kelganidan so'ng masjidlar atrofida tashkil etilganligi to'g'risidagi qarashlar biz quyida ko'rib chiqadigan bir qator tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Markaziy Osiyo hududidagi ta'lim tizimi uzoq ming yillik tarixiy bosqichlarni, rivojlanish va tanazzul davrlarini boshdan kechirgan. Olim K. Bekvitning fikricha, "Markaziy Osiyodagi

ta'lim tizimi dastlab buddizmning Vixara ta'lim tizimi ko'rinishlarini aks ettirib, bunda kichik yoshdagi bolalarga o'qish yoki yozishni o'rgatish uchun munozara asosida tashkil etilishi nazarda tutilgan" (Beckwith, 2009).

Shuningdek, N. Xaqi (2003) "Markaziy Osiyoda ta'lim tuzilishi VIII asrning boshlarida Arab xalifaligining buyrug'iga binoan har bir masjid, shahar, qishloqlar tarkibida Qur'on o'qishga asoslangan maktablar sifatida tashkil etilgan. Ta'lim tizimi 2 ta bazaviy akademik institut: boshlang'ich maktablar va kuttabdan iborat bo'lgan. Keyinchalik Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansur saroyida madrasa-kutubxona tashkil etilib, ibn Sino unga rahbarlik qilgan. Islom ta'lim tizimi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va nazorat qilinadigan tizim bo'lmagan, bu ta'lim asosan diniy bilimlar bo'yicha bahs-munozara yuritadigan markazlar sifatida ko'rinadi," – deya qayd etgan.

Albatta, qayd etish lozimki, o'sha davrdagi oliy ta'lim tashkilotlari qanday nomda, qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, hozirgi kundagi OTTdan har jihatdan tubdan farq qilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining tashkil topish tarixi borasida tadqiqot olib borgan olim D. Duturayeva (2012) "Hozirgi kunda butun dunyo miqyosida faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim dargohlari bo'lmish universitet va kollejlarning ilk shakllari Markaziy Osiyo hududida X asrdayoq mavjud bo'lgan", – deb qayd etgan.

Bizning fikrimizcha, hozirgiga o'xshash oliy ta'lim tashkilotining ilk ko'rinishlari X asrda madrasalar sifatida shakllangan va unda asosan katta yoshdagi insonlar ta'lim olgan. Bu borada A. Mes (1973) o'z tadqiqotlarida "rasmiy ta'lim instituti bo'lmish madrasa tashkil qilinib, diniy ilmlarni puxta egallagan kadrlarni tayyorlash mazkur dargohning vazifasi bo'lgani"ni ta'kidlagan.

"Madrasa instituti Markaziy Osiyoda X asrda shakllanib, saljuqiylar davrida davlat tomonidan boshqariladigan va tashkil etiladigan", "Nizomulmulk davrida esa faoliyati ro'yxatga olingan rasmiy tashkilot sifatida faoliyat yuritadigan" oliy ta'lim tashkiloti bo'lgan (Boyle, 1986; Nasr & Santillana, 2001).

Islom olamida masjid hududlarida quyi maktablarning rivojlanib borishi o'z navbatida undan keyingi bosqichni shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirgan hamda oliy ta'lim tashkilotining ilk tushunchasi bo'lgan madrasa institutining vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Madrasalar oliy ta'lim tashkiloti bo'lib xizmat qilganligini yana shu bilan dalillash mumkinki, "u yerda tahsil olganlar asosan balog'at yoshiga yetgan, ya'ni boshlang'ich ta'lim – kuttabni bitirgan 12–14 yoshdagi bolalar" tahsil olgan, "madrasaga kirib u yerda rasman talaba maqomiga erishganlar 15 yoshdan 40 yoshgacha 3 bosqichda o'qitilgan" (Hassim, 2010, p. 751; Azimbayev, 2015, p. 158).

Zamonamiz tili bilan aytganda, bakalavr bosqichini tamomlagan huquqshunoslarga, ya'ni madrasadagi ta'limni yakunlagan talabalarga ular ta'lim muassasasini yakunlaganini tasdiqlovchi hujjat berilgan. Ular turli hududlarda shariat qoidalariga rioya qilinishi yuzasidan qozi yoki muftiy lavozimida faoliyat olib borishgan.

Madrasa ko'rinishidagi oliy ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishi va moliyalashtirish manbalari Markaziy Osiyo hududlarida X asrdan XX asrning dastlabki 10 yilligi davomida asosan hukmdorlar, oliynasab insonlar tomonidan tashkil etilgan, u yerning faoliyat olib borishi uchun esa davlat g'aznasidan yoki vaqf mulkidan kelib turuvchi moliyaviy manbalar yo'naltirilgan.

Madrasalarni tashkil etish har bir davrning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqanligini, asosan X–XII asrdagi Sharq uyg'onish davri yoki Amir Temur va temuriylar tomonidan ta'lim sohasiga berilgan katta e'tibor tufayli rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan davrlarda oliy ta'lim tashkilotlari hisoblangan madrasalarni alohida tashkil etish tartibi yoki yagona standart mavjud bo'lmagan. Masalan, "Saljuqiylar davrida Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan madrasalar to'liq davlat tomonidan tashkil etilib, uning vaqf instituti orqali moliyaviy ta'minlanishi davlat tomonidan nazorat qilingan bo'lsa", "Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiylar o'zlari madrasalar tashkil etib, shaxsiy mablag'lari evaziga ularni moliyaviy ta'minlagan" (Mamadaliyev, 2015, p. 24; Subtelny, 1991, p. 38). O'sha davrdagi hukmdor yoki vazir tomonidan emas, balki olim va mutafakkirlar tomonidan davlat tasarrufidan alohida madrasalar tashkil etilishi hozirgi kundagi nodavlat ta'lim tashkilotlarining ilk ko'rinishi deb hisoblash o'rinli.

"A. Temur va temuriylar davrida madrasalarni tashkil etish va boshqarish tizimi biroz takomillashtirilib, madrasalar tizimida vaqf, davlat, shaxsiy kutubxonalar" tashkil etilishi, diniy ilmlar bilan birga, dunyoviy ta'limning o'quv dasturiga kiritilishi hamda ularning ma'lum bir shaxs yoki devon, ya'ni davlat tomonidan nazorat qilinishi ta'minlangan. Bu tizim Turkiston o'lkasida XX asrning 20-yillariga qadar amalda bo'lgan (Oxunjonov, 2004, p. 44).

Oliy ta'lim tashkilotlarini bu tarzda tashkil etish va boshqarish elementlari hozirga qadar ham milliy qonunchiligimizda, amaliyotimizda saqlanib qolganligini, bu esa o'zining bir qator salbiy oqibatlarini ko'rsatayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

O'rta Osiyo hududiga Rossiya imperiyasining bostirib kirishi hamda yangi qonun-qoidalar o'rnatilishi XIX asrning oxiri va XX asrning dastlabki ikki dekadasi ta'lim sohasida o'zgacha tartib-tamoyillar o'rnatilishiga sabab bo'ldi. Turkiston o'lkasida Chor Rossiyasi davrida yangi tashkil etilgan rus-tuzem maktablari bilan birga amalda bo'lgan va mahalliy aholining oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojini birmuncha qondirgan madrasalar ham o'z faoliyatini olib borgan.

F. Kerenskiy (1892) "maktablar mahalliy ziyolilarni tayyorlovchi, o'rta va oliy o'quv yurtlari bo'lgan madrasalarga o'qishga kirish uchun dastlabki bosqich vazifasini o'tagan, maktab bitiruvchisi madrasaga kirib rasman talaba maqomiga erishgan", – deya qayd etgan.

Bu davrda Turkiston o'lkasida ta'lim sohasidagi asosiy ishlar general-gubernator fon Kaufman tomonidan nazorat qilinib, uning tashabbusi bilan 1876-yilda barcha ta'lim sohasini tashkil etish va boshqarish uchun O'quv ishlari boshqarmasi tashkil etilgan. Shu bilan birga, ta'lim sifatini nazorat qilish uchun esa 1876-yil 1-iyulda Toshkent shahrida Ta'lim bosh inspektori lavozimi joriy etilib, unga o'lkadagi yangi va eski tuzumdagi ta'lim dargohlarini nazorat qilish, o'quv ishlari bilan bog'liq barcha masalalarni boshqarish, ta'lim tashkilotlarining o'z vazifalarini to'g'ri bajarilishini nazorat qilish yuklatilgan.

Umuman olganda, Turkiston o'lkasida 1873–1917-yillar oralig'ida nafaqat ta'lim sohasi, balki oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga solish yuzasidan 20 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilingan. Turkiston o'lkasida ta'lim sohasini moliyalashtirish Harbiy vazirlik orqali amalga oshirilgan va barcha ta'lim masalalari Turkiston general-gubernatori devonxonasidagi 2-bo'lim tasarrufiga kirgan.

Bu davrda ta'lim sohasi harbiy vazirlik bilan birga eski tuzumdagi madrasalar uchun vaqf yerlaridan kelgan daromad, xayriya mablag'lari evaziga ham moliyalashtirilgan.

1917-yilda Rossiya imperiyasida ro'y bergan davlat to'ntarishi Turkiston o'lkasida ham maktabdan tortib oliy o'quv yurtlariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Mazkur o'zgarishlar yana shunisi bilan xarakterlanadiki, o'lkada jadidchilik harakatining keng tarqalishi natijasida ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati paydo bo'ldi. Xususan, "jadidlar rus

bosqinchilarining oliy ta'lim g'oyasi mohiyatini juda to'g'ri anglagan holda unga qarama-qarshi bo'lgan milliy, dunyoviy oliy ta'lim g'oyasini jadid matbuoti hamda adabiyoti orqali keng targ'ibot qilganlar" (Qodirov, 2019).

Tadqiqotchi U. Mansurov Farg'ona viloyati Xalq maorif boshqarmasi tomonidan 1918-yil iyun oyida Qo'qon universiteti filiali, 1919-1920-yillarda Qo'qonda xotin-qizlar instituti, o'rta texnik o'quv yurti tashkil etilganini ko'rsatgan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tashkilotining tashabbuskorlar guruhi tomonidan tashkil etilishi o'sha davr uchun ham, hozirgi davr amaliyoti uchun ham alohida voqelik sifatida qayd etiladi. Ya'ni birinchi marta Turkiston o'lkasida jadid ma'rifatparvarlari sa'y-harakatlari bilan 1918-yil 21-aprel kuni Turkiston xalq universiteti, 1918-yilning noyabr oyida esa sharqshunos olimlarning tashabbuslari bilan Turkiston sharqshunoslik instituti tashkil etilgan.

Mazkur ikki oliy ta'lim dargohi davlatning yoki qaysidir tashkilotning emas, balki hududning ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'z mablag'lari va bino-inshootlari bilan ro'yxatdan o'tkazilgan tashkilot hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan Turkiston xalq universitetining ustavida muassasaning oliy organi Universitet kengashi, fakultet boshqaruv organi uning kengashi etib belgilangan. Ustavning 12-bandida Universitet kengashi rektor va prorektorlarni saylash, fakultet kengashlari tomonidan saylangan dekanlarni tasdiqlash vakolatiga ega ekanligi qayd etilgan.

Universitet to'liq mustaqil bo'lgan, boshqaruvni hech qanday vazirlik yoki idora bilan kelishmasdan tashkil etgan. Mazkur holatni hozirgi kundagi milliy qonunchilikdan ustun jihat sifatida qayd etish lozim. Chunki "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 30-moddasida davlat va ba'zi nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va tugatish Prezident yoki Vazirlar Mahkamasining qarori bilan, 32-moddada esa ta'lim tashkilotlarining ustavlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanishi qayd etilgan.

Bundan ko'rish mumkinki, hozirgi davrdagi milliy amaliyotdan farqli o'laroq, Turkiston xalq universiteti to'liq akademik va moliyaviy mustaqillikka ega bo'lgan.

B. Qodirovning qayd etishicha, mazkur Turkiston xalq universiteti RSFSR Xalq komissarlari kengashining 1920-yil 7-sentabrdagi qarori bilan Turkiston davlat universiteti sifatida, 1923-yilda O'rta Osiyo universiteti va 1960-yil aprel oyidan O'zbekiston SSR kommunistik partiyasi va Xalq maorif ministrligi tomonidan Toshkent davlat universiteti nomi bilan qayta tashkil etilgan.

Shu bilan yuqorida qayd etilgan Turkiston xalq universiteti moliyaviy va akademik jihatdan o'z mustaqilligini yo'qotgan.

Umuman olganda, 1917-1991-yillar oralig'ida O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududida oliy ta'lim sohasining boshqaruvi, o'quv yurtlarining tashkil etilishi va faoliyat olib borishi sobiq Ittifoq kommunistik g'oyasi ta'sirida shakllanganini qayd etish lozim.

Ta'lim sohasining rivojlanishi yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borgan Z. Razer va D. Abdullah fikricha, SSSR davridagi siyosatga asosan ta'lim sohasi markaziy apparat tomonidan markazlashtirilgan holda boshqarilishi, universitetlar yoki institutlarni tashkil qilish yoki boshqarish markaz tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lgan (Rather & Abdullah, 2019).

Albatta, bu fikrga qo'shilish mumkin. Sababi kommunistik g'oya ta'sirida tarbiyalangan yoshlarni ko'paytirish, davlat boshqaruvini qo'lga olish, har bir jarayonni markazdan turib

boshqarish birmuncha oson bo'ladi. Shuningdek, bu davrda oliy ta'lim sohasida O'rta Osiyo universiteti fakultetlaridan alohida institutlar tashkil qilish orqali oliy ta'lim dargohlari soni ortganini ko'rish mumkin. Masalan, o'tgan asrning 20–30-yillarida Toshkent politexnika instituti, Toshkent meditsina instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi instituti hamda shunga o'xshash 20 ga yaqin institut yangi tashkil etilib, aholining oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojini qamrab olishga harakat qilingan. 1950–1958-yillar davomida oliy o'quv yurtlarining birlashuvi natijasida esa ularning soni 37 tadan 31 taga kamaygan bo'lsa-da, talabalar soni oshirilgan.

O'zbekistonda 1917–1990-yillar davomida ta'lim sohasini boshqarish va davlat siyosatini yuritish yagona vazirlik, ya'ni O'zSSR Xalq ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshirilgan.

Buning o'ziga yarasha ijobiy sifatini ham ko'rish mumkin. Sababi bir-biriga yaqin bo'lgan oliy ta'lim, xalq ta'limi va maktab ta'limi mazmun-mohiyatiga ko'ra ta'lim olish va uni tashkil etish jarayonidan iborat. Hozirgi kun nuqtayi nazaridan bu holat davlat apparatining kengayib ketishining oldini olish bilan birga, davlat byudjetiga yuklamaning kamayishiga hamda muvofiqlashtirish protsessiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Salbiy tomoni esa vazirlik umumiy ta'lim sohasiga rahbarlikni amalga oshirib, oliy ta'lim yo'nalishida qabul kvotalarini shakllantirish yuzasidan Oliy sovetga taqdimnoma kiritish, oliy o'quv yurtlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish, belgilangan standartlarning joylarda og'ishmay joriy etilishini nazorat qilishga mas'ul bo'lgan, umuman olganda, to'liq tashkiliy-uslubiy va boshqaruvni amalga oshirgan. Ya'ni oliy ta'lim tashkilotlari akademik va moliyaviy mustaqillikdan to'liq mahrum etilgan.

Maorif vazirligi 1990-yilda tugatilib, uning negizida Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tashkil etilgan. Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 19-maydagi 237-sonli qarori bilan nizom tasdiqlanib, oliy ta'limni boshqaruvchi davlat organi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda 269-sonli Farmoniga asosan davlat boshqaruv organlari qayta shakllantirilib, maktabgacha va maktab ta'limi boshqaruvi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi, oliy ta'lim boshqaruvi esa Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa bir qator qonunosti hujjatlarga asosan, ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, sohani strategik rivojlantirish, oliy ta'lim xizmatlari sohasidagi faoliyatni litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash, o'quv jarayonini tashkil etish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash, o'qishga qabul qilish parametrlarni belgilash va boshqa faoliyatlar uning vazifasi hisoblanadi.

Xulosa

Oliy ta'lim tashkilotlarining rivojlanish jarayonini tahlil qilish asosida, o'rta asrlarda ular qisman bo'lsa-da, moliyaviy va akademik mustaqillikka ega bo'lganligi, mazkur rivojlanishning yuqori bosqichi Turkiston universiteti misolida ham namoyon bo'lganligi, biroq mustaqillikkacha bo'lgan davrda oliy ta'lim tizimi sovet mafkuraviy qoidalariga bo'ysundirilganligi hamda mustaqillikning dastlabki 30 yillik davrida, asosan, davlat nazorati ostida faoliyat yuritganligi haqida xulosa qilish mumkin.

REFERENCES

- Azimbayev, M. S. (2015). *O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixi* [History of education development in Uzbekistan]. Tafakkur Qanoti.
- Beckwith, C. I. (2009). *Empires of the Silk Road: A history of Central Eurasia from the Bronze Age to the present*. Princeton University Press.
- Boyle, J. (1986). *The Saljuq and Mongol periods*. Cambridge University Press.
- Bulayev, N. I. (2022). *Oliy ta'lim sohasida ta'limni davlat tomonidan nazorat qilishning o'ziga xos jihatlari* [Specific aspects of state control of education in the field of higher education]. Education.
- Duturayeva, D. Sh. (2012). *O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ta'lim tizimi va madaniyat rivoji* [Educational system and cultural development in Medieval Central Asia]. *Social Sciences in Uzbekistan*, (3), 42–47.
- Haqi, G. N. (2003). Muslim education and learning in Medieval Central Asia: An appraisal. *Journal of Central Asian Studies*, 14, 99–121.
- Hassim, E. (2010). *Elementary education and motivation in Islam*. Routledge.
- Kerenskiy, F. (1892). Medrese Turkistanskogo kraya [Madrasahs of the Turkestan region]. *Journal of the Ministry of Public Education*, 284, 18–52. <https://www.academia.edu/42022072/>
- Mamadaliyev, X. (2015). *O'zbekistonda ta'limning rivojlanish tarixshunosligi* [Historiography of education development in Uzbekistan]. Tafakkur Qanoti.
- Metz, A. (1973). *Musulmanskiy renessans* [Muslim renaissance]. Science.
- Nasr, S. H., & Santillana, G. (2001). *Science and civilization in Islam*. University of Chicago Press.
- Oxunjonov, E. (2004). *Vatan kutubxonachiligi tarixi* [History of national librarianship]. Adolat.
- Qodirov, B. B. (2019). *O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish* [Improving the organizational and legal foundations of personnel training in the higher education system of the Republic of Uzbekistan] [Abstract of doctoral dissertation]. Tashkent.
- Rather, Z. A., & Abdullah, D. (2019). The development of Soviet education in Kazakh SSR (1917–1991). *Journal of Central Asian Studies*, 26, 33–48.
- Subtelny, M. E. (1991). A Timurid educational and charitable foundation: The Ikhlasiyya complex of 'Alisher Navā'i in 15th-century Herat and its endowment. *Journal of the American Oriental Society*, 111(1), 38–61. <https://doi.org/10.2307/603748>
- Tan, J. E. T. (2020). Higher education systems and institutions, Singapore. In P. N. Teixeira & J. C. Shin (Eds.), *The international encyclopedia of higher education systems and institutions* (pp. 1470–1475). Springer Nature.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2026-YIL MAXSUS SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 SPECIAL ISSUE

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.SI.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.